



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқулловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

<b>1. Abduraxmon Abduxalimov</b> YANGI O‘ZBEKISTONDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	5
<b>2. Омонулло Бўриев</b> СОҶИБҚИРОН НАЗАРИДАН ЎТГАН ТАРИХИЙ АСАР.....	12
<b>3. Хайрия Буриева</b> ПУТЕВОДИТЕЛЬ НАЦИОНАЛЬНОГО АРХИВА УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ, ИСТОРИЧЕСКАЯ И ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ.....	19
<b>4. Nodira Babadjanova</b> DINIY-MA’RIFIY SIYOSAT: QAT’IY KURASHDAN KENG BAG‘RIKENGLIK SARI.....	32
<b>5. Davletov Sanjarbek, Bekimbetov Bahodir,</b> OROL DENGIZINING PAYDO BO’LISHI VA GIDROLOGIK O‘ZGARISHLARI TARIXIDAN.....	37
<b>6. Дорошенко Татьяна</b> ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛЬСКОЙ ДИАСПОРЫ В ТУРКЕСТАНЕ И ЕЕ УЧАСТИЕ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ КРАЯ (КОНЕЦ XIX -НАЧАЛО XXВВ.).....	42
<b>7. Axmedov Baxriddin</b> O‘ZBEKISTONDA HARBIY SUDYALAR INSTITUTI: TAYINLASH, MALAKA OSHIRISH VA ATTESTATSIYA JARAYONLARI (2001–2016 yillar misolida).....	50
<b>8. Akbarova Nigora</b> FARG‘ONA VILOYATIDA MUSIQA TA’LIMI TIZIMI: MUSIQA MAKTABLARINIING TASHKIL TOPISHI VA DASTLABKI DAVRDAGI FAOLIYATI.....	60
<b>9. Nurmetov Ismoil</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SIYOSATNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI RIVOJLANISH TARIXIDAN.....	65
<b>10. Зарипов Жахонгир</b> ИСТОРИОГРАФИЯ ПО МИГРАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННЫЕ ЗОНЫ УЗБЕКИСТАНА 70-80-Х ГОДОВ XX ВЕКА.....	71
<b>11. Polvanov Azim</b> TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA SANCHUVCHI, KESUVCHI, VA ZARB BERUVCHI SOVUQ QUROLLAR VA ULARNING TASNIFI.....	79
<b>12. Choriyeva Nargiza</b> O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZM: HOZIRGI HOLATI, SALOHİYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	84




**Davletov Sanjarbek Rajabovich,**  
DSc, Ma'mun universiteti professori,  
sdavletov7722@gmail.com

**Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich,**  
t.f.n., Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti dotsenti,  
bahadyrbekimbetov35@gmail.com

## OROL DENGIZINING PAYDO BO'LISHI VA GIDROLOGIK O'ZGARISHLARI TARIXIDAN

**For citation:** Sanjarbek R.Davletov, Bakhodir M.Bekimbetov, FROM THE HISTORY OF THE FORMATION AND HYDROLOGICAL CHANGES OF THE ARAL SEA. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18498731>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Orol dengizining paydo bo'lishi va gidrologik o'zgarishlari tarixi tahlil qilingan. Neogen davridan boshlab Turon pasttekisligidagi tektonik harakatlar, Amudaryo va Sirdaryo daryolari oqimining yo'nalishidagi uzluksiz o'zgarishlar dengizning shakllanishi va suv sathining dinamikasiga sabab bo'lgan. Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida Orol dengizi suv sathining ko'tarilishi va pasayishi iqlim o'zgarishlari, geografik transformatsiyalar va insonning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq holda kechgan. Xususan, sug'orish tizimlarining barpo etilishi yoki buzilishi suv yo'nalishini sezilarli darajada o'zgartirgan.

Maqolada arxeologik, geologik, tarixiy manbalarga tayanilgan holda dengiz va uning havzasi atrofidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, transgressiya va regressiya jarayonlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Orol dengizi, Amudaryo, Sirdaryo, suv sathi, geologik jarayonlar, suv rejimi, Neogen davri, irrigatsiya, antropogen ta'sir.

---

**Давлетов Санжарбек Раджабович,**  
Доктор исторических наук,  
профессор Университета Мамун,  
sdavletov7722@gmail.com

**Бекимбетов Баходир Мирзобаевич,**  
кандидат исторических наук,  
доцент Института сельского хозяйства и  
агротехнологий Каракалпакстана,  
bahadyrbekimbetov35@gmail.com

## ИЗ ИСТОРИИ ОБРАЗОВАНИЯ И ГИДРОЛОГИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ АРАЛЬСКОГО МОРЯ

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируется история образования и гидрологических изменений Аральского моря. Начиная с периода неогена тектонические движения в Туранской низменности и постоянные изменения направления течения рек Амударья и Сырдарья обусловили образование моря и динамику уровня воды. На разных этапах исторического развития подъем и падение уровня воды Аральского моря происходили в связи с изменением климата, географическими преобразованиями и хозяйственной деятельностью человека. В частности, строительство или разрушение ирригационных систем существенно изменили течение воды.

В статье рассматривается социально-экономическая жизнь вокруг моря и его бассейна, взаимоотношения общества и природы, а также процессы трансгрессии и регрессии на основе археологических, геологических и исторических источников.

**Ключевые слова:** Аральское море, Амударья, Сырдарья, уровень воды, геологические процессы, водный режим, неогеновый период, орошение, антропогенное воздействие.

**Sanjarbek R. Davletov,**

DSc., Professor of the Mamun University,  
sdavletov7722@gmail.com

**Bakhodir M. Bekimbetov,**

Candidate of Historical Sciences,  
Associate Professor of the Institute of Agriculture and  
agrotechnologies of Karakalpakstan  
bahadyrbekimbetov35@gmail.com.

## FROM THE HISTORY OF THE FORMATION AND HYDROLOGICAL CHANGES OF THE ARAL SEA

### ABSTRACT

The article analyses the history of formation and hydrological changes of the Aral Sea. Since the Neogene period, tectonic movements in the Turan lowland and constant changes in the direction of flow of the Amu Darya and Syr Darya rivers have determined the formation of the sea and the dynamics of the water level. At different stages of historical development, the rise and fall of the Aral Sea water level occurred due to climate change, geographical transformations and human economic activity. In particular, the construction or destruction of irrigation systems has significantly changed the water flow.

The article discusses the socio-economic life around the sea and its basin, the relationship between society and nature, and the processes of transgression and regression based on archaeological, geological and historical sources.

**Index Terms:** Aral Sea, Amu Darya, Syr Darya, water level, geological processes, water regime, Neogene period, irrigation, anthropogenic impact.

### 1. Dolzarbligi:

Orol dengizi - Markaziy Osiyoda joylashgan yopiq suv havzasidir. Shimoldan Qozog'iston, janubdan O'zbekiston, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi yerlari bilan o'ralgan. Dengiz sug'orish va gidrologik tizimlar bilan chambarchas bog'liq, tabiiy-geografik va tarixiy jihatdan mintaqada juda muhim suv havzasi hisoblanadi. Uning shakllanish tarixi, suv sathining ko'tarilishi va pasayishi bilan bog'liq jarayonlar Markaziy Osiyodagi iqlim, geologik o'zgarishlar, daryo oqimlarining yo'nalishi hamda inson faoliyati ta'sirida yuz bergan. Orol dengizining paydo bo'lishi haqidagi ilmiy qarashlar - tektonik o'zgarishlar, Amudaryo va Sirdaryo daryolarining o'zanlaridagi

uzoq muddatli dinamikalar bilan bog'liqdir. Qadimdan bugungacha davom etgan tabiiy va ijtimoiy jarayonlar Orol dengizi atrofidagi ekotizimlar, irrigatsiya tizimlari, kishilik jamiyatining turmush tarzi va xo'jalik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Shu jihatdan, Orol dengizining paydo bo'lishi va suv sathidagi o'zgarishlarni ilmiy-tarixiy asosda tahlil etish nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham dolzarb masala hisoblanadi. Bu masalani o'rganish Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining gidrologik va antropogen muhiti haqida to'liq tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida Amudaryo janubdan Orol havzasiga quyilib, Amudaryoning hozirgi o'zani va Orolbo'yi deltasining shakllanishi boshlandi [5,9].

Tarixshunoslik manbalaridan ma'lum bo'lishicha, Orol dengizi qadimda «Oks ko'li» va «Oks botqog'i» (S.P. Tolstov ta'kidlaganidek) nomlari bilan tilga olingan. Qadimgi mualliflar ham Amudaryo va Sirdaryo daryolarini mos ravishda Oks va Yaksart nomlari bilan zikr qilganlar. Bu daryolar Pliniy ta'riflagan «Skiflar bo'g'ozi» yoki Ptolemey ta'riflagan «Oksiana ko'li»ga quyilgan deb qayd etilgan [6,20].

Mustaqillik yillarida ushbu mavzu yuzasidan izlanishlar olib borgan tarixchi olimlardan M.V. Hojiyeva (Социальное развитие села Узбекистана в конце 70-х и начале 80-х годов: опыт и проблемы. Дисс....к. и. н. Т., 1992), O.M. Yo'ldoshev, R.A. Nosirov (Социальное развитие села Узбекистана (1965-1985 гг.). Дисс... д. и. н. Т., 1997) D.V. Babadjanova (Социально-экономические аспекты межнациональных отношений в Узбекистане. Дисс. д. и. н. Т., 1997.), K.M. Nasriddinov (Развитие ирригационно-мелиоративного строительства в Узбекистане и его общественно-экономические последствия (1981-1990 гг.). Дисс....к. и. н. Анд., 1995), N. Oblomurov, V. Siddafov (Социально-экономические аспекты развития совхозного производства Узбекистана в 1965-1985 гг.). Дисс... д. и. н. Т., 1994), A. Hazratqulov (Социальные проблемы Узбекистана и пути их решения. Специфика, опыт, перспективы (1971-1990 гг.). Дисс... д. и. н. Т., 1993), D. Bobojonova va boshqalar o'zlarining tadqiqotlarida tabiat va jamiyat munosabatlariga ham to'htalib o'tganlar.

## **2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:**

Maqola umume'tirof etilgan tarixiy-taqqoslash, tizimlashtirish, retrospektiv tahlil kabi usullar asosida bayon etilgan bo'lib, unda Orol dengizi va uning havzasining paydo bo'lishi, suv sathining davriy o'zgarishlari, daryo oqimlari yo'nalishining tarixi, shuningdek, tabiiy jarayonlar bilan inson faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganildi. Bu geologik tuzilishlar, iqlim o'zgarishlari va sug'orish tizimlarining shakllanishi, shuningdek, jamiyatning ekotizimlarga ta'siri, umuman mintaqadagi gidrologik muvozanatning shakllanish jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi.

## **3. Tadqiqot natijalari:**

Olimlarning fikricha, Orol dengizining yoshi 12 ming yilga teng. Neogen davrida Markaziy Osiyo hududida kuchli tektonik harakatlar natijasida Turon pasttekisligining markazida uchta chuqurlik - Orol, Xorazm va Sariqamish botiqlari shakllangan [1,4]. Bu vaqtda Amudaryo Kaspiy dengiziga quyilar edi. Taxminan 70 ming yil oldin u shimolga burilib, katta ko'l hosil qilgan.

Keyinchalik daryo o'z yo'nalishini bir necha marta o'zgartirdi. Bundan 10-12 ming yil muqaddam Amudaryo yana g'arbga qarab oqib, Sariqamish botig'iga yetib borgan va ko'lga aylangan. Bungacha Amudaryo taxminan 1-2 million yil davomida Qoraqum pastliklari orqali Sariqamishga oqib o'tgan, u ilgari faqat suvsiz botiqdan iborat bo'lgan [2, 17]. Suv oqimi yetarlicha katta bo'lgan, shuning uchun Sariqamish botig'ida hosil bo'lgan ko'l dengiz sathidan 58 m gacha ko'tarilgan. Ortiqcha suv janubga oqib, Uzboy o'zanini hosil qilgan. U orqali Kaspiy dengizigacha bo'lgan oqim, ehtimol, kamida miloddan avvalgi X-II ming yilliklarda mavjud bo'lgan.

Ba'zi olimlarning fikricha, Orol dengizi va uning havzasi so'nggi pleystotsenda (taxminan miloddan avvalgi 12 ming yil oldin) suv bilan to'la boshlagan. Bu davrda Orolbo'yi hududlari sovuq quruq iqlim, qishda past harorat (-15°) va salqin yoz bilan tavsiflanardi. Og'ir iqlim sharoitlari tufayli bu hudud odamsiz qolgan va faqatgina 8 ming yil oldin isish jarayoni boshlangan. Orol dengizining sathi 72-73 metr ga ko'tarilgan, so'ngra mutlaq balandligi 57-58 metrda

barqarorlashgan. Dengiz rivojlanishining bu bosqichi «qadimgi Orol» deb nomlangan. U taxminan 8-5 ming yil oldin, Orolga daryo suvlari oqimi keskin ko'paygan paytda mavjud bo'lgan. Bir vaqtning o'zida Amudaryoning barcha delta eski o'zanlari va Sirdaryoning hozirgi quruq o'zanlari - Quvandaryo va Inkardaryo faoliyat yuritgan. Iliq, nam iqlim o'rnatilgan (yanvarning o'rtacha harorati  $-8^{\circ}$ , iyulniki  $+21^{\circ}$ - $+20^{\circ}$ , yog'ingarchilik miqdori ortgan), Orol havzasining o'simlik va hayvonot dunyosi kengaygan.

Geolog olimlarning fikriga ko'ra, Amudaryo deltasining shakllanish jarayoni to'rt bosqichda kechgan bo'lib, bu bosqichlar daryo oqimining asosiy qismi yo'nalishlaridagi o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Olimlar Orol havzasining yuqorida qayd etilgan shakllanish davrlarini ta'kidlab, Amudaryo suvlarining Orol dengiziga asosiy quyilishi asta-sekin, ehtimol bir necha asr davomida yuz berganini ko'rsatadilar. Bu davrda Amudaryo oqimi yo'nalishini Sariqamish ko'lidan Orol dengiziga va aksincha o'zgartirib turgan bo'lishi mumkin. Suv oqimi yo'nalishining bunday o'zgarishlari miloddan avvalgi birinchi ming yillikning o'rtalarigacha davom etgan [3, 196-197]. Bu hududda neolit davrida ovchi-baliqchilar istiqomat qilgan. Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalariga kelib esa, janubiy Oqchadaryo deltasining irmoqlari bo'ylarida dastlabki dehqonlar paydo bo'lgan. Ular motiga bilan yer haydovchi dehqon-chorvadorlarning xo'jalik-madaniy turini namoyon etgan edilar [4,3].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Orol dengizi va Amudaryoning hozirgi deltasi miloddan avvalgi I ming yillikda shakllana boshlagan. Sirdaryo bir nechta o'zanlarni — Inkardaryo, Janadaryo va keyinchalik Quvandaryo tizimini vujudga keltirgan bo'lib, ular orqali Sirdaryo suvlari Orol dengizining janubi-sharqiy qismiga tomon oqib o'tgan. Mazkur suv tizimlari antik davrda va so'nggi o'rta asrlarda faol bo'lgan. Hozirgi Sirdaryo deltasi esa taxminan 2,5 ming yil muqaddam, ya'ni miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida Amudaryo va Sirdaryoning Orol dengiziga quyilishi natijasida shakllana boshlagan.

O'shandan buyon Orol dengizi bir necha bor regressiya va transgressiya bosqichlarini - ya'ni suv sathining pasayishi va ko'tarilishi jarayonlarini boshdan kechirgan. Masalan, miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida dengiz suv sathi 58–59 metrga yetgan. Bu holat issiq iqlim sharoiti o'rnatilishi, natijada muzliklarning jadal eriy boshlashi va bug'lanish miqdorining oshishi bilan bog'liq bo'lgan. I. Volkov va boshqa olimlarning fikricha, aynan shu davrda G'arbiy Sibirdagi muzlik oldi ko'llarining suvi To'rg'ay vodiysi orqali Orol cho'kma hududiga oqib tushgan [7].

Milodiy I ming yillikning o'rtalarida Orol dengizi suv sathining sezilarli darajada pasayishi kuzatildi, bu davrda uning sathi 23-27 metr belgisigacha tushib ketganligi aniqlandi [8,85]. Bu voqea dashtlik qabilalarning (xunlar, eftaliylar, keyinchalik turklar) vohaga bostirib kirishi oqibatida sodir bo'lgan. To'g'on va dambalar buzilgach, sug'oriladigan yerlar xarobaga aylangan. Natijada, Amudaryo suvlari yana Sariqamish botiqligiga oqib tusha boshlagan.

B.Andrianovning yozishicha, «shiddatli tarixiy voqealar nafaqat Orolbo'yi mintaqasining siyosiy xaritasini o'zgartirgan, balki asosiy dehqonchilik va ko'chmanchi chorvachilik xo'jalik-madaniy hududlarining o'zaro nisbatiga ham ta'sir ko'rsatgan. Xorazm vohasi chekkalaridagi antik davrga oid aksariyat yirik shahar-qal'alar o'sha paytga kelib tanazzulga uchrigan. O'ng qirg'oqdagi Xorazmda bir qator yirik sug'orish tizimlaridagi hayot to'xtab qolgan edi» [9,112]. Amudaryo deltasidagi qadimiy sug'oriladigan yerlar faqat VII-VIII asrlardan boshlab tiklanishga yuz tutdi. XI-XII asrlarga kelib, Janubiy Orolbo'yida yirik vohalar qayta jonlandi. Bu jarayon Xorazmning yirik feodal davlat markaziga aylanishi bilan bog'liq edi. O'sha davrda sug'orish tarmog'i egallab turgan umumiy maydon 2,4 million hektarni tashkil etardi. Amudaryoning asosiy oqimi Orolga yo'naltirilgani tufayli, dengiz sathi mutlaq balandligi 54-55 metrga ko'tarildi [5,12].

Bu davrda Amudaryo, Orolning asosiy oqimi sifatida, mintaqadagi ekologik vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, geotizimlar va ularning tarkibiy qismlariga insonning ta'siri ayniqsa kuchli va murakkab bo'lgan. Amudaryo deltalarida jamiyat va tabiatning o'zaro munosabati daryoning dahshatli tabiiy kuchlarining xo'jalik faoliyatiga halokatli ta'sirini, shu bilan birga uning suv resurslaridan samarali foydalanishning tarixiy misollarini namoyon etadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Amudaryo oqimining asosiy yo'nalishi o'zgarishi tabiat kuchlari va xo'jalik-ijtimoiy faoliyatning murakkab o'zaro ta'siri natijasida yuz bergan. Agar antik davrga

qadar Amudaryoning quyi oqimi g'arbiy havza va Sariqamish botig'ini kuchli suv bilan ta'minlagan hamda Kaspiy dengizigacha yetib borgan bo'lsa, sug'orish tizimlari barpo etilganidan so'ng deltaning janubiy irmoqlari qurib, Orol dengiziga oqim ko'paygan.

#### 4.Xulosa:

Shunday qilib, Orol dengizining tabiiy shakllanishi va faoliyati haqidagi tarixiy tahlil bu ichki suv havzasini murakkab, yaxlit tabiiy hodisa sifatida tasavvur qilish imkonini beradi. Orol dengizi tabiiy shakllanishi va suv sathidagi o'zgarishlar tektonik jarayonlar, iqlim dinamikasi va Amudaryo hamda Sirdaryo oqimining uzoq muddatli o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lgan. Qadimgi davrdan boshlab inson faoliyati, xususan, sug'orish va irrigatsiya ishlari suv oqimining yo'nalishi va Orol dengizi sathiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Geologik va arxeologik tadqiqotlar natijalari suv havzasida sarhad o'zgarishlarining tarixiy davrlar bilan uyg'unligini namoyon ettiradi. Shu bilan birga, Orol dengizining hozirgi ekologik muammolari o'z navbatida tarixiy jarayonlarni chuqur o'rganishni ham taqozo etadi.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Аширбеков У., Зонн Ч. Арал: история исчезающего моря. – Душанбе, 2003. Ashirbekov U., Zonn Ch. Aral: The History of a Vanishing Sea. - Dushanbe, 2003.
2. Озеро Сарыкамыш и водоемы - накопители коллекторно-дренажных вод. – М.,1991. Lake Sarykamysh and Water Bodies - Reservoirs of Collector-Drainage Waters. - M., 1991.
3. Рубанов И., Ишниязов Д. и др. Геология Аральского моря. - Т., 1987. Rubanov I., Ishniyazov D. et al. Geology of the Aral Sea. - T., 1987.
4. Аральский кризис (историко-географическая ретроспектива). - М., 1991. The Aral Sea Crisis (Historical-Geographical Retrospective). - M., 1991.
5. Акрамов З., Рафиков А. Прошлое, настоящее и будущее Аральского моря. – Т., 1987. Akramov Z., Rafikov A. The Past, Present, and Future of the Aral Sea. - T., 1987.
6. Бейсенова А. Из истории изучения Аральского моря. //В кн.: Арал тағдыри. - А.,1989. Beisenova A. From the History of Aral Sea Studies. // In the book: Fate of the Aral Sea. - A., 1989.
7. Волков И. и др. О стоке приледниковых вод во время последнего оледенения Западной Сибири. – М., Изд-во АН СССР, сер. геогр., 1978, - №34. Volkov I. et al. On the Flow of Periglacial Waters During the Last Glaciation of Western Siberia. - M., USSR Academy of Sciences Publishing House, Geographical Series, 1978, - No. 34.
8. Маев Е.Т. и др. Аральское море в голоцене (по материалам изучения разрезов данных отложений). // В кн.: Аральский кризис. - М., 1991. Maev E.T. et al. The Aral Sea in the Holocene (based on the study of sediment profile data). // In: The Aral Crisis. - Moscow, 1991.
9. Андрианов Б.В. Из истории орошения в бассейне Аральского моря. // В кн.: Аральский кризис. - М., 1991. Andrianov B.V. From the History of Irrigation in the Aral Sea Basin. // In the book: The Aral Crisis. - M., 1991.

# ЎТМИШГА НАЗАР

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

### Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qator muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qator sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].